



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN	93
Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadiyeva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEKANIZMLARI	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI	165
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	172
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
MAJBURIY IJRO HARAKATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	177
Matmuratova Nasiba Azatovna	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI	181
Pulaton Abdulla	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	185
Nazarov Aziz Avazovich	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ.....	190
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI.....	197
Omonova Nafisa Qahramon qizi	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION.....	200
Ahrorova Asila	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	207
Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI.....	212
Tursunov Rasul Tairovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ.....	218
Эргашева Феруза Насруллаевна	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN.....	226
Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY	231
Musadjanova Nargiza Abduvoxid qizi	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI.....	238
Saodat Sadriddinova	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	243
Saida Xabibullayeva	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна	



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	252
Kudratova Iroda Turdibayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI	257
Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich	
FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEXNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI	260
Sottarov Abduvali Umirqulovich	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....	266
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Rahmanova Sitara Bahodir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA OPERATSION MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	277
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MOLİYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH.....	283
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSİYALASH VA MUQOBIL MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)	286
Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich	
O'ZBEKISTONDA XO'JALIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARI FAOLIYATINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH.....	292
Valijonov Akmaljon	
IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR	296
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	
O'ZBEKISTON MOLİYA TIZIMIDA MAHALLIY MOLİYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	303
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО ПАКЕТА	308
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI XUDUDIY TARKIBINI TAKOMILASHTIRISH YO'LLARI	311
Uralov Eliboy Omonovich	
INNOVATSION VA AN'ANAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING TAQQOSLAMA TAHLILI	316
Abdulfarmonov Farrux Faxriddinovich	
EKSPORT IMKONIYATLARI VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI SOLISHTIRISH.....	320
Safarova Muxabbat Radjabovna	
IJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI O'SISHI DINAMIKASI VA LIKVIDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	324
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KO'CHMAS MULKNI OMMAVIY BAHOLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI.....	331
Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA MOLİYAVIY HISOBOTLARNI MHXS GA O'TKAZISHDA TRANSFORMATSIYA REJASINI ISHLAB CHIQUISH MASALALARI.....	339
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich	
QURILISH SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVINING IQTISODIY MEXANIZMLARI	343
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHNING NAZARIY JIHATLARI	351
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	



KAPITAL BOZORI ORQALI MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTITSIYA JALB QILISHNING BELARUS TAJRIBASI	357
<i>Abduraxmanov Adham Raxmatullayevich</i>	
BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGI AMALIYOTLARINI JORIY ETISHDA XULQ-ATVOR OMILLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI	362
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
SANOAT KORXONALARIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	367
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
O'ZBEKISTONDA MEHMONXONALARNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI JOYLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	373
<i>Xasanova Naimaxon Akmal qizi</i>	
SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	381
<i>Jovliyeva Zuhra Chori qizi</i>	
SANOATNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "YASHIL" INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	386
<i>Ibragimov Zaxid Taxirovich</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ АКТИВАМИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫЙ БАНК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	395
<i>Т.И.Бобакулов, Тухтамышева Гулнора Усмановна</i>	
AGRAR TARMOQQA JALB QILINAYOTGAN INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI ISHLAB CHIQRISH FUNKSIYALARI YORDAMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	401
<i>Xatamov Ochildi Qurbonovich, Badalov Jamshid Jamolovich</i>	
IJARA OPERATSIYALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING KAMCHILIKLARI VA UZVIY TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	409
<i>Oripova Saodat Mirfotix qizi</i>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION SALOHİYATINI OSHIRISH.....	414
<i>Xolboyeva farangiz xayrulloevna</i>	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI VOSITALARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI.....	419
<i>To'xtamisheva Dilrabo Shermonovna</i>	
MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTINI KENGAYTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	424
<i>Kalenov K.T.</i>	
HUNARMANDCHILIK BRENDLARINING BOZOR OMILLAR TIZIMINI (MAHSULOT, NARX, TAQSIMOT, TARG'IBOT) TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI	428
<i>Ergasheva Aziza</i>	
NAMANGAN VILOYATI IQTISODIYOTIDA TARKIBIY O'ZGARISHLAR: HUDUDIY VA TARMOQ TAHLILI	436
<i>Tohirov Jahongir Muzaffar o'g'li</i>	
WATER HARVESTING FOR CLIMATE RESILIENCE IN UZBEKISTAN'S AGRICULTURE: OPPORTUNITIES, BARRIERS, AND POLICY RECOMMENDATIONS	445
<i>Kripa Mondal, Dr. Anita Banerjee</i>	
O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IQTISODIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	454
<i>Sattarov Abdusamat Umirqulovich</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	459
<i>Nasibboyev Fazliddin Sirojiddinovich</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI MONITORING QILISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH YO'LLARI	464
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
SIRKULYAR IQTISODIYOT — IQTISODIY BARQARORLIKNING MUHIM OMILI	471
<i>Hasanov Sh. Sh.</i>	



МАРКЕТИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗА.....	482
Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи	
TEMIR YO'L SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	488
Orifova Ximoyat Shovkat qizi	
O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBADAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	494
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH VA EKONOMETRIK PROGNOZLASH	503
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASHDA EKONOMETRIK MODELLAR VA GEOSTATISTIK USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	509
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYA QILISH VA ULARNING ISH FAOLIYATIGA TA'SIRI: O'ZBEKISTONDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES MISOLIDA	518
Yuldashov Aziz	
RAQOBAT MUHITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	522
Boboyev L. Kadrxo'ja Djuraxodjeyevich	
XODIMLARNI O'QITISH, QAYTA TAYYORLASH VA ISHSIZLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI (GERMANIYA MISOLIDA).....	528
Sattorov Ramziddin Shovxiddin o'g'li	



XODIMLARNI O'QITISH, QAYTA TAYYORLASH VA ISHSIZLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI (GERMANIYA MISOLIDA)

Sattorov Ramziddin Shovxiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Inson resurslarini boshqarish" yo'nalishi,
2-kurs magistranti
Email: ramziddinsatt250@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Germaniyaning ishsizlarga nisbatan qo'llayotgan o'ziga xos yondashuvlari chuqur o'rganilgan. Hozirgi kunda Germaniyada nafaqat ishsizlarni, balki malakasi yuqori bo'lgan kadrlarni ham qayta malaka kurslari orqali o'z sohasini yanada chuqurroq o'rganishiga imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, Berufsausbildung, Weiterbildung, Fortbildung va Umschulung dasturlari shular sirasiga kiradi. Bundan tashqari, Germaniyada hozirgi kunda bir milliondan ortiq inson Berufsausbildung yo'nalishi orqali bandlikka erishayotgani alohida e'tiborga loyiqdir. Germaniyaning bunday xilma-xil o'quv dasturlari orqali ishsizlik darajasini sezilarli darajada kamaytirishga erishayotgani O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun samarali tajriba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ishsizlar, qayta o'qitish kurslari, o'quv dasturlari, samarali ishga yo'naltirish, rivojlanayotgan mamlakatlar, yoshlar.

Abstract. This article examines in detail the specific approaches used in Germany for training, retraining, and vocational guidance of unemployed people. Currently, Germany provides broad opportunities not only for unemployed individuals, but also for highly qualified specialists to deepen their knowledge and skills through retraining and advanced training programs. These include Berufsausbildung, Weiterbildung, Fortbildung, and Umschulung. In addition, special attention should be paid to the fact that more than one million people in Germany are currently employed through the Berufsausbildung system. Germany's success in significantly reducing unemployment through such diverse educational programs can serve as an effective example for developing countries such as Uzbekistan.

Key words: unemployed, retraining courses, training programs, effective job placement, developing countries, youth.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются особенности подходов Германия к обучению, переподготовке и профессиональной ориентации безработных. В настоящее время в Германии созданы широкие возможности не только для безработных, но и для квалифицированных специалистов, позволяющие им углублять свои знания и навыки посредством программ переподготовки и повышения квалификации. К таким программам относятся Berufsausbildung, Weiterbildung, Fortbildung и Umschulung. Кроме того, особого внимания заслуживает тот факт, что в настоящее время более одного миллиона человек в Германии заняты в рамках системы Berufsausbildung. Успешное снижение уровня безработицы благодаря таким разнообразным образовательным программам может служить эффективным примером для развивающихся стран, таких как Узбекистан.

Ключевые слова: безработица, курсы переподготовки, программы обучения, эффективное трудоустройство, развивающиеся страны, молодежь.

KIRISH

So'nggi yillarda sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar texnologiyalarining rivojlanishidagi yutuqlar iqtisodiyotning keng ko'lamda rivojlanishiga turtki bo'ldi. Biroq yangi yaratilayotgan texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlari global iqtisodiyotda ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bir qatorda, ayrim an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishiga ham olib kelmoqda. Buning natijasida hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham ishsizlik darajasi oshib bormoqda. Bu holat iqtisodiyot uchun ham katta imkoniyat, ham muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, har bir mamlakatning asosiy vazifalaridan biri ishsizlarni ish bilan ta'minlash va kelajakda ishsizlik darajasini pasaytirishdan iborat. Hozirgi tez rivojlanayotgan va ishchi kuchiga bo'lgan talab tez o'zgarib



borayotgan davrda bu hatto rivojlangan mamlakatlar uchun ham murakkab jarayondir. Shuning uchun har bir mamlakat o'zining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishga majbur bo'lmoqda.

Dunyoda ishsizlikni mutlaq bartaraf etgan mamlakatlar mavjud bo'lmasa-da, uni juda past darajada ushlab turishga erishgan davlatlar mavjud. Misol uchun, United States, Germaniya, Japan, Singapore, South Korea va boshqa mamlakatlar o'z iqtisodiyotida ishsizlik darajasini 3–6 foiz atrofida ushlab turishga muvaffaq bo'lmoqda. Shu mamlakatlar ichida Germaniya ham bu masalaga o'ziga xos yechimlari va o'qitish tizimlari bilan butun dunyoda ajralib turadi.

Trading Economics ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada 2024-yil va 2025-yilning birinchi choragi bo'yicha umumiy ishsizlik darajasi bir xil bo'lib, 6,3 foizni tashkil etgan. Germaniyada umumiy hisobda 3 millionga yaqin inson o'zini rasmiy ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tkazgan. Bu ko'rsatkich Yevropaning ayrim boshqa mamlakatlariga nisbatan yuqoriroq bo'lsa-da, shuni inobatga olish kerakki, Germaniya Yevropada va dunyo bo'yicha eng ko'p migrant qabul qiladigan, shuningdek, xorijiy talabalar uchun ta'lim olish imkoniyatlari keng bo'lgan mamlakatlardan biridir. Shu sababli ish izlovchilar sonining yuqoriligi tabiiy holat hisoblanadi.

Biroq ushbu mamlakat migrantlarni, ish izlayotgan talabalarni, turli sabablarga ko'ra ishini yo'qotgan fuqarolarni va boshqa davlatlardan kelgan insonlarni turli innovatsion o'qitish tizimlari orqali jamiyatga oson integratsiya qilish hamda ishchi kuchiga bo'lgan talabni qondirish bo'yicha samarali tajribaga ega.

Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan chambarchas bog'liq. Buning aniq dasturi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son¹ qarori muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2025-yil 17-yanvarda Shavkat Mirziyoyev aholi bandligini ta'minlash va yangi yondashuvlar asosida kambag'allikni qisqartirishga oid chora-tadbirlar bo'yicha o'tkazilgan selektor yig'ilishida har bir fuqaroning ish bilan band bo'lishi va kambag'allik darajasini mamlakat bo'ylab sezilarli kamaytirish zarurligini ta'kidlagan. Bundan tashqari, mamlakatdagi ishsiz fuqarolarni turli zamonaviy kasblarga va xalqaro tillarga o'qitish dasturlari natijalari bilan tanishib, istiqbolda ushbu loyihalarni yanada rivojlantirish zarurligini qayd etgan. Natijada mamlakat bo'ylab milliondan ortiq ishsiz fuqarolarni yangi zamonaviy ish joylari bilan ta'minlash bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab xalqaro va mahalliy ilmiy izlanishlar olib borilgan. United Nations hamda Federal Ministry of Labour and Social Affairs tomonidan ushbu yo'nalishda turli maqolalar va statistik tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Misol uchun, Philipp Grunau, Julia Lang, Thomas Kruppe, Kathrin Kaja Rüpieper, Stephan L. Thomsen, Heiko J. Jahn, Dennis Mayer va Alfons Hollederer kabi olimlar Germaniya va boshqa mamlakatlarda ishsizlarni qayta kasbga o'qitishning ularni uzoq muddatli ish bilan ta'minlashda qanchalik samarali ekanligi hamda ishsizlik darajasiga ta'sirini o'rganganlar.

Shuningdek, o'zbekistonlik olimlar Shuhrat Xolmuminov, Qudrat Abdurahmonov, A. Hayitov, A. Akbarov, A. Irmatova va I. Bakieva kabi olimlar ishsizlik, mehnat bozori va mehnat sotsiologiyasi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Sh. Xolmuminov, Q. Abdurahmonov, A. Hayitov va A. Akbarov mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi bo'yicha keng ilmiy tadqiqotlar olib borib, ishga tayyorlash, moslashtirish va kasbga yo'naltirish masalalarini keng yoritganlar.

A. Irmatova raqamli iqtisodiyot davrida inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyati mavzusida ilmiy izlanish olib borgan. Ushbu ilmiy ishda raqamli texnologiyalar yordamida inson salohiyatini yanada rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, egallangan bilim va malakaning zamonaviy kasblarni o'zlashtirishdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Bundan tashqari, Daniel Goller, Tamara Harrer, Michael Lechner va Joachim Wolff Germaniyada davlatning ishsizlarga yordam dasturlarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida trening va kasbga yo'naltirish dasturlari ijobiy natija berishi, biroq barcha dasturlar bir xil samaradorlikka ega emasligi aniqlangan.

Shuningdek, Alexander Spermann uzoq muddatli ishsizlikka qarshi Germaniya siyosati bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qayta o'qitish, nazorat va rag'batlantirish mexanizmlarining uyg'unligi ishsizlarni qayta kasbga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan. U ishsizlarga nafaqat ta'lim berish, balki ularni faol mehnatga undash ham zarurligini ta'kidlagan.

Alfons Hollederer va Heiko J. Jahn 2023-yilda qayta o'qitilgan ishsiz fuqarolar ustida ilmiy tadqiqot olib borib, kasbga qayta o'qitish dasturlarini tugatgan fuqarolar tezroq ish topganini va ularning ruhiy holati ham

¹ <https://lex.uz/docs/-4945748>



yaxshilanganini aniqlaganlar. Tadqiqot yakunida ular to'g'ri tashkil etilgan trening dasturlari insonni mehnat bozoriga tezroq olib kirishini xulosa qilganlar.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Germaniyada ishsizlarni qayta tayyorlash tizimini o'rganishda statistik ma'lumotlar, rasmiy manbalar va qiyosiy tahlil usullariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida Statista, Bundesinstitut für Berufsbildung hamda Fortbildung.de kabi manbalardan foydalaniladi.

Qayta tayyorlash dasturlarining samaradorligini tahlil qilishda qiyosiy, tizimli va analitik yondashuvlardan foydalaniladi. Shuningdek, Germaniyada qo'llanilayotgan kasbga yo'naltirish va qayta tayyorlash dasturlarining natijalari boshqa mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslanadi hamda ularning ishsizlik darajasini kamaytirish va bandlikni oshirishdagi o'rnini baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Germaniya ijtimoiy davlat sifatida har bir ishsiz fuqaroning ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratadi. Shu sababli ishsiz qolgan shaxslar turli sabablarga ko'ra davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ularga muayyan turdagi ishsizlik nafaqalari taqdim etiladi.

Masalan, Arbeitslosengeld avval ishlagan va soliq to'lagan fuqarolarga beriladigan ishsizlik nafaqasi hisoblanadi. Ushbu nafaqani olish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- oxirgi 30 oy davomida kamida 12 oy ishlagan bo'lishi;
- ishini yo'qotgandan so'ng Arbeitsagenturda ro'yxatdan o'tishi.

Mazkur nafaqa avvalgi oylik daromadning 60 foizi miqdorida, agar fuqaroning farzandi bo'lsa 67 foizi miqdorida to'lanadi. To'lov muddati odatda 6 oydan 12 oygacha davom etadi.

Shuningdek, Bürgergeld ham ishsizlar uchun mo'ljallangan nafaqa turi hisoblanadi. Bu nafaqa avvalgi ish tajribasidan qat'i nazar, har bir ishsiz fuqaro tomonidan olinishi mumkin. Biroq bunda ham quyidagi shartlar mavjud:

- Germaniyada doimiy yashayotgan bo'lishi;
- ishga layoqatli bo'lishi (18–67 yosh oralig'ida);
- moliyaviy yordamga ehtiyoji mavjudligini tasdiqlashi.

Bürgergeld miqdori oyiga 583 yevro etib belgilangan. Ushbu to'lovlar cheklangan muddat davomida berilishi va asosan kundalik iste'mol xarajatlarini qoplashga xizmat qilishini inobatga olsak, fuqarolarning ishlashga va kasbiy rivojlanishga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'lishi tabiiy.

Shu sababli Germaniyada aholining ijtimoiy holatidan kelib chiqib, turli malaka va kasbga oid ta'lim yo'nalishlarini tanlash imkoniyati mavjud. Ta'lim turlari va shakllari juda keng va xilma-xil bo'lib, kasbiy rivojlanishni istagan yoki yangi kasb egallashni maqsad qilgan shaxslar o'z ehtiyojlariga mos dasturlarni tanlashlari mumkin.

Germaniyada keng tarqalgan kasbiy ta'lim tizimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Berufsausbildung
2. Umschulung
3. Weiterbildung
4. Erwachsenenbildung
5. Duales Studium
6. Berufliche Fortbildung

Ushbu tizimlar ichida eng mashhur va keng tarqalgani Berufsausbildung hisoblanadi. Bu yo'nalishda asosan maktabni bitirgan abituriyentlar yoki 18–45 yoshdagi ishsiz shaxslar ishtirok etishi mumkin. Mazkur tizimda qatnashuvchilar 2 yildan 3,5 yilgacha davom etadigan muddat davomida bir vaqtning o'zida ham o'qiydi, ham ishlaydi.

Berufsausbildung dasturida tahsil olayotganlar oyiga 800 yevrodan 1200 yevrogacha daromad olishi mumkin. Ushbu ta'lim tizimida Germaniyaning o'zida 350 dan ortiq kasb yo'nalishlari mavjud.

Eng talab yuqori bo'lgan sohalar quyidagilardan iborat:

- texnika yo'nalishlari (muhandislik, avtomexanika, elektrotexnika);
- IT va dasturlash;
- tibbiyot va parvarish;
- savdo va logistika;
- turizm;
- oshpazlik;
- moda dizayni va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarini.

Bu tizim Germaniyada yoshlarni mehnat bozoriga tez moslashtirish, ishsizlik darajasini pasaytirish va iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).



1-jadval. Germaniyadagi turli ta'lim dasturlari orqali o'qitilgan va qayta tayyorlangan ishsiz fuqarolarning umumiy statistikasi²

Ko'rsatkich	Raqam
Ausbildung dasturida tahsil olayotgan talabalar soni	1,22 mln
2023-yildagi Ausbildung shartnomalari taklifi	562 600
2023-yilda yangi tayyorlov shartnomalari uchun murojaat qilgan yoshlar soni	552 900
2023-yilda ochiq qolgan bo'sh Ausbildung o'rinlari soni	73 400

Germaniyadagi Ausbildung dasturi bilan shug'ullanayotgan yoshlarning 2023-yildagi asosiy statistikasi shuni ko'rsatadiki, ushbu tizim mamlakat mehnat bozorida muhim o'rin tutadi. Statista ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda 1,22 million talaba aynan shu dastur orqali bir vaqtning o'zida ham ta'lim olmoqda, ham ishlamoqda.

Bundan tashqari, yana 74 mingga yaqin bo'sh Ausbildung o'rinlari mavjudligi alohida e'tiborga loyiq. Bu esa Germaniyada malakali ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekanligini va ushbu ta'lim tizimi orqali yoshlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatadi.

2023-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada Ausbildung yo'nalishiga eng ko'p murojaat qilgan yosh toifasi 18 yoshdagilar bo'lib, ular jami ishtirokchilarning 15,4 foizini tashkil etadi. Buning asosiy sababi shundaki, maktab bitiruvchilari uchun ushbu yo'nalish eng asosiy kasbiy ta'lim variantlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, 24 yosh va undan katta bo'lganlar ham 13,1 foiz ulushga ega. Bu esa katta yoshdagi insonlar ham ushbu yo'nalishda faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, Ausbildung dasturi asosan 17–24 yoshdagi yoshlar orasida juda mashhur hisoblanadi.

Keyingi muhim o'quv dasturlaridan biri Umschulung hisoblanadi. Ushbu dastur asosan ishsizlar yoki kasbini mutlaqo boshqa yo'nalishga o'zgartirmoqchi bo'lganlar uchun mo'ljallangan. Masalan, tibbiyot sohasidan savdo, haydovchilik yoki boshqa kasblarga o'tishni istaganlar ushbu dasturdan foydalanishlari mumkin. Dastur odatda 2 yil davom etadi va unda tahsil olayotganlar ko'pincha yo'naltirilgan kompaniya tomonidan moliyalashtiriladi yoki xarajatlar Bundesagentur für Arbeit tomonidan qoplanadi. Umschulung dasturining boshqa dasturlardan asosiy farqi shundaki, u asosan kasbini tubdan o'zgartirmoqchi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan.

Weiterbildung ham Germaniyada muhim va ommabop dasturlardan biri hisoblanadi. Ushbu dastur qisqa vaqt ichida kasbiy yoki malakaviy o'sishga erishmoqchi bo'lganlar uchun juda qulaydir. Dastur odatda 6 oydan 1 yilgacha davom etadi. Ko'pchilikni qiziqtiradigan savollardan biri o'qish davomida ish haqi to'lanishidir. Bu savolga javob ijobiy: ish beruvchi tomonidan eng kamida soatiga 13,5 yevro miqdorida to'lov amalga oshiriladi.

Bu dastur ayniqsa universitetni endigina bitirib, ish topishda qiyinchilikka duch kelayotgan yoshlar uchun juda qulay hisoblanadi. Chunki amaliyot jarayonida ular qisqa vaqt ichida katta tajriba orttirib, mehnat bozoriga tez moslashadi. Ushbu yo'nalishning Umschulung yoki Ausbildungdan asosiy farqi shundaki, bunda mavjud kasb va malaka yanada rivojlantiriladi.

Weiterbildung dasturi Germaniya bo'yicha juda mashhur bo'lib, 18–60 yosh oralig'idagi aholining 54 foizi ushbu yo'nalishda malakasini oshirgan. Har yili o'rtacha 27 million inson ushbu dastur orqali o'z malakasini rivojlantiradi. Weiterbildung dasturini tamomlagandan so'ng, o'rtacha oylik ish haqi 400 yevrodan 1200 yevrogacha oshishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Germaniya imkoniyatlar mamlakati sifatida turli o'quv dasturlarining mavjudligi va ularning keng qatlamlar uchun ochiqligi bilan ajralib turadi. Bunday xilma-xil ta'lim dasturlarining mavjudligi Germaniya iqtisodiyoti uchun ham muhim ustunlik hisoblanadi. Sababi, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish darajasining pasayib borayotgani ishchi kuchiga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Germaniya sanoatida ham shunga o'xshash holat kuzatilmogda.

Bunday vaziyatga Germaniya moslashuvchan va turli ehtiyojlarga javob bera oladigan o'quv dasturlari orqali samarali yechim topmoqda. Ayniqsa, Berufsausbildung, Weiterbildung va Umschulung kabi dasturlar ishsizlik darajasini kamaytirish, yoshlarni mehnat bozoriga tez moslashtirish va malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston kabi rivojlanish yo'lidan izchil borayotgan davlatlar uchun Germaniyaning bunday yondashuvi samarali tajriba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu sababli mamlakatimizda ham turli o'quv tizimlarini joriy qilish, xususi sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish va katta hajmda ishchi qabul qila oladigan kompaniyalar bilan qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2 Muallif ishlanmasi



Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish markazlari faoliyatini kengaytirish, yoshlar va ishsiz fuqarolar uchun qisqa muddatli amaliy kurslarni tashkil etish, zamonaviy kasblar bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda xorijiy tillarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratish ijobiy natija beradi.

To'g'ri, bunday yondashuv ishsizlik darajasini qisqa muddatda keskin kamaytirmasligi mumkin, biroq uzoq muddatda mehnat bozorining barqaror rivojlanishiga, malakali kadrlar sonining oshishiga va aholi bandligining yaxshilanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bundesinstitut für Berufsbildung — Germaniyada kasbiy ta'lim va dual tizim bo'yicha ilmiy va amaliy ma'lumotlar beruvchi rasmiy institut sayti.
2. Make it in Germany — xorijliklar uchun Germaniyada ishlash, kasb o'rganish va migratsiya imkoniyatlari haqida rasmiy portal.
3. Federal Employment Agency — ish qidirish, kasbga yo'naltirish va ishsizlarni qayta o'qitish xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat sayti.
4. German Chamber of Commerce and Industry — biznes va kasbiy ta'lim tizimini tashkil etuvchi savdo-sanoat palatalari sayti.
5. Weiterbildung.de — malaka oshirish va qayta o'qitish kurslari haqida ma'lumot beruvchi ta'lim platformasi.
6. Volkshochschule — kattalar ta'limi va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish kurslarini taklif etuvchi tizim sayti.
7. Cedefop — Yevropada kasbiy ta'lim tizimi va siyosatini o'rganadigan tahliliy markaz sayti.
8. Bundesagentur für Arbeit — Germaniya mehnat bozori statistikasi va bandlik siyosati bo'yicha rasmiy ma'lumotlar portali.
9. Trading Economics — Germaniya va boshqa davlatlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda ishsizlik statistikasi platformasi.
10. S. Xasanova. O'zbekistonlik yoshlarning Germaniyadagi imkoniyatlari. *Science and Education*, 4(3), 2023, pp. 1023–1027.
11. A. Irmatova. Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi. *Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali*, 1-son, 2024, pp. 102–117.
12. Philipp Grunau, Julia Lang. Retraining for the Unemployed and the Quality of the Job Match. *Applied Economics*, 52, 2020, pp. 1–20.
13. Shuhrat Xolmuminov, Qudrat Abdurahmonov, A. Hayitov, A. Akbarov. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi: mehnat bozori shakllanishi, ishsizlik va bandlik muammolari, mehnatga moslashish va motivatsiya, ijtimoiy himoya tizimi. *Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali*, 1, 2024, pp. 7–18.
14. A. Hayitov. Mehnat bozori rivoji, bandlik siyosati va iqtisodiy islohotlarning bandlikka ta'siri. *Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali*, 1, 2024, pp. 19–25.
15. L. Makhmutkhodjaeva, V. Gabzalilova, A. Irmatova. Digitalization of Higher Education: Experience of Implementation. *Proceedings of Scientific Conference*, 2025, pp. 333–336.
16. A. Irmatova, M. Mirzakarimova, D. Iskandarova, G. Abdumalikova. Factors and Prospects for the Development of Digital Educational Platforms in Uzbekistan. In: *Proceedings of Tenth International Congress on Information and Communication Technology (ICICT 2025)*, Lecture Notes in Networks and Systems, Vol. 1415, Springer, Singapore, 2025, pp. 194–200.
17. A. Irmatova, D. Iskandarova, G. Pirnazarova, J. Mansurov, M. Xakimova. Green Jobs in a Sustainable Labor Market: Remote Work, Skills and Training. *E3S Web of Conferences*, Vol. 574, 2024, pp. 1–6.
18. Alfons Holleder, Heiko J. Jahn. Results from a Nationwide Evaluation Study of JOBS Program Germany. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 20(19), 2023, p. 6835.
19. Alexander Spermann. How to Fight Long-Term Unemployment: Lessons from Germany. *IZA Discussion Paper*, No. 9134, 2015, pp. 1–25.
20. Daniel Goller, Tamara Harrer, Michael Lechner, Joachim Wolff. Active Labour Market Policies for the Long-Term Unemployed. *Journal of Labor Economics*, 2021, pp. 1–30.
21. Thomas Kruppe, Julia Lang. Labour Market Effects of Retraining for the Unemployed: The Role of Occupations. *Applied Economics*, 50(14), 2018, pp. 1578–1600.
22. Kathrin Kaja Rüpieper, Stephan L. Thomsen. Can Voluntary Adult Education Reduce Unemployment? *Labour Market Research*, 2025, pp. 1–15.
23. Heiko J. Jahn, Dennis Mayer, Alfons Holleder. Health Promotion for the Unemployed: JOBS Program Germany. *Archives of Public Health*, 81, 2023, pp. 1–10.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>